Qisqa muddatli dinamik o'zgarishlar (dekompensatsiya, fazalar) va uzoq muddatli patalogiyalar farqlanadi.

Psixopatiyalar klassifikatsiyasidagi tormozlanuvchi, gipotimik va sikloid tipdagi shaxslarda ko'pincha suitsid xolatlari kuzatiladi.

Tormozlanuvchi doiradagi shaxslarning umumiy tipalogik xususiyatlariga tormoz reaksiyasi (rad etish reaksiyasi, oson xafa bulish va uzini tulik shakllanmagan sezish) kiradi.

Kuzgatuvchi motivlarni sustligi, initsiiyativsizlik, xayotiy kiyinchiliklar oldida nochorlik, insonlar bilan mnosabatda ishonchsizlik xos bo'lib, ko'proq xavotir, uyatlilik, tez xafa bo'lish, qo'rqqoqlik aniqlanadi. Ular uchun liderlikka intilish yod xususiyat, o'ziga past baho berish, o'ziga ishonmasli kuchiga ishonmaslik kuzatiladi. Bunday shaxslarda depressiyaga moyillik ko'prok bo'ladi. Chuqur depressiya paytida ular o'z joniga qasd qiladilar.

Gipotimik psixopatiyali shaxslar «tug'ma pissimistlar». Ular, xatto omad xam ularda umid uyg'otmaydi, «men xursand bo'lishni bilmayman», «menga xar

doim qiyin». Mana shu ularning o'zlari xaqida fikri. Ular ko'pincha xayotning qora taraflarini sezadilar, ko'p vaqtlarini salbiy kayfiyatda o'tkazadilar va u xolatlarini ustalik bilan yashirishadi. Bir ko'rinishidagi xursanchilik va xayotiylik ortida g'am qaygu yotadi. Xar qanday baxtsizlik boshkalarga nisbatan ularga og'ir botadi va xar qanday omadsizlikda o'zini ayblashadi. Ularni vijdoni qiynaladi: ular omadsiz, xamkasblari tomonidan olingan obro'ga va xurmatga o'zlarini noloyiq deb biladilar. Bu xolatni davom etishi depressiyaga olib keladi. Ularda depressiya og'ir o'tadi, bu xolatdan chiqishga chora topolmaydilar, ular uchun yagona yo'l o'z joniga qasd qilish. Shuning uchun ularda suitsid xolatlar ko'p uchraydi.

Psixopatiyani sikloid tipiga gipertimiklar va gipotimiklar va chin sikloid turi kiradi. Bunda yuqori turlarning almashuvi kuzatiladi. Bu insonlarning hayoti uchish va tushishlardan iboratdir. Xayot davomida ular 2-3 xayotni kechadilar. Gipertimli turdagi bemorlar doim kuvnok, xarakatchang, xamma atrofdagini pushti rangda kurishadi. Ularning xayot davomidagi shiori: "Bugun xamma narsa yaxshi, ertaga esa bundan xam yaxshirok buladi". Bu bemorlar o'tirishlarning joni bo'lishadi, xammani qiziqtirishadi. Gipertimik fazadan chiqqan shaxslarda gipotimik faza boshlanadi. Gipotimli turdagi psixopatlar tug'ma pessimistlar, doimiy atrofdagilardan norozi bo'lishadi, javrashadi, atrofda biror bir qiziqtirgan narsani ko'rmaydilar. Xayot davomida o'zlarini muvaffakiyatsiz xisoblaydilar. Gipertimik fazadagi barcha yaxshi narsalar bir zumda yo'q bo'lib, ular o'rnini bo'm-bo'shlik, g'am-qayg'u, tushkun kayfiyat egallaydi va bemorlar chuqur depressiyaga tushib qoladilar. Depressiya xolatida suitsidga qo'l uradilar.

### **Depressiyada uchraydigan suitsid xolatlar**

Suitsid va depressiya chambarchas bog'langan. Ba'zi xollarda tug'ruqdan keyingi depressiyada xam ayollarda chuqur qayg'urish xolatida suitsid kuzatilishi mumkin.

Uzoq davom etadigan depressiya shaxsni suitsid fikrlarga chorlaydi, so'ng suitsidni amalga oshirilish bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda depressiv

buzilishlar 40-60% suitsidal xolatlariga sabab bo'ladilar. Depressiyasi bor odamda o'z joniga qasd qilish uchun 35 marta ko'p imkon bo'ladi. Bu shuni aytadiki 15% endogen depressiyalik bemorlarda 20%da suitsid qiliishga urinadilar. Xar bir oltinchi odamda suitsidni oxirga yetkazadi. Suitsid xolatlar ko'p xollarda og'ir somatik kasalliklar fonida xam yuzaga keladi, masalan, insult, rak, diabet. Bunday odamlar yaqin odamlarini ortiqcha tashvishga qo'ymaslik va ular xaqida qayg'urish, xamda kuchli og'riqlar, xatto medikamentlar yordam bermaganda. Depressiyali odamlarda suitsid xolatlari birdaniga paydo bo'lmaydi, odatda uzoq vaqt xamda chuqur o'ylashga undaydi. Agarda depressiyali odamda suitsidal fikrlarni o'z vaqtida bilib qolsa yomon oqibatni oldini olib qolmay, balki unga kerakli va sifatli xayotni tiklashga yordam beradi.

### **Alkogolizmda uchraydigan suitsid xolatlar**

Spirтли ichimliklarni suistemol qilgan shaxslarda esa abstinensiya xolatida alkogol depressiyasi kuzatiladi. Spirтли ichimliklarni suistemol qilgan shaxslarda suitsid ko'p kuzatiladi. Alkogolning iste'mol qilinishi suitsidga moyillik yaratuvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Tahlil etilayotgpn hodisalarning 35,21%i organizmida alkogol mavjudligi aniqlangan. Aniqlangan alkogolning qondagi miqdoriga nisbatan ularning yarmidan ortig'i yengil, o'rta va og'ir darajadagi mastlik holatda bo'lgan. Ayni paytda mastlik holatida o'z-o'zini o'ldirish holatlari ko'proq 25-30 yoshlardagi suitsidentlarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

Spirтли ichimliklar va giyoxvand moddalar suistemol qilgan oilalarda sog'lom turmush tarzi buziladi. Bunday oilalarda tarbiya qilinayotgan bolalar psixologiyasi buziladi.

O'z joniga qasd qilish spirтли ichimliklar suistemol qilgan oilalarda nisbatan ko'p uchrash aniqlangan. Spirтли ichimliklar suistemol qilgan ota-onalar bolalari yaxshi rivojlanishi uchun sharoit yaratib bera olmaydilar, bunday bolalarda ota-onasi va yaqinlarining ijtimoiy qo'llab quvvatlashi bo'lmaydi. Tarbiyaning

disgormonik formasi aksentuatsiyaning u yoki bu turini shakllanishiga turtki bo'ladi.

Aksentuatsiyali bolalar odatda ta'sirchan, odamovi bo'lib, o'zlarini doim yolg'iz, keraksizdek, xayotini mazmunsiz sezadilar. Bunday bolalar suitsid xaqidagi o'ylar bilan band bo'ladilar. Spirtli ichimliklar va giyoxvand moddalar istemol qilgan o'spirinlarda ko'pincha xayotdan voz kechishga urinish bo'ladi. Ma'lumki 80% ga yaqin odam, suitsid qilishdan oldin spirtli ichimlik qabul qiladi. Alkogol - bu depressant. Bunday suitsid xolatlarini oldini olishda bu bemorlarni o'z vaqtida aniqlab, to'g'ri tashxislab davolash lozimdir.

### **Giyoxvand shaxslarda suitsid xolatlar**

Biz kuzatgan suitsidentlar ichida giyoxvand va spirtli ichimliklarni suistemol kilgan shaxslar aniklandi. Giyexvand shaxslarda abstinent xolatdan chiqayotgan paytda o'tkir ruxiy buzilishlar kuzatiladi. Asosan chuqur depressiya xolati kuzatiladi. Ularda kayfiyat pastligi, uyqusizlik, yurak siqilishi, g'amginlik bo'ladi. Bemorlarda siqilish xissi, aybdorlik umidsizlik, o'ziga kam baho berish va gunoxkorlik xissining bo'lishi bemorlarning ruxiy axvolini taranglashtiradi. Mana shu paytda ularda o'z joniga qasd qilish xolatlari ko'p uchraydi. Bu depressiya uzoq davom etadi.

### **Involyutsion psixozlarda uchraydigan suitsid xolatlar**

Involyutsion melanxoliya 45-55 yoshda paydo bo'lib ayollarda uchraydi. Asosan atimik depressiya, disforiya. Bu davrda asta-sekin vaxima kuchayib vaximali depressiya vujudga keladi. Doim vahima oshib boradi, vahimali shubxalanishlar, xar-xil baxtsizliklarni kutish. Borgan sari vaximali depressiya va ajitatsiya xamda qo'zg'alishlar oshib boradi. Keyin depressiya vasvasani xar-xil formalari (o'zini ayblash, aybdorlik, o'z - o'zini o'ldirish, ipoxondrik g'oyalar) qo'shilib boradi. Psixozni yuqori cho'qqisida ajitirlangan vaxima, vaximali vasvasa depressiyasi qo'rquv bilan keladi, xarakatli ajitatsiya, vaximali verbigeratsiya bemorlar nutqida xar-xil xolatlarda adaptatsiyali buzilishlar bo'ladi.

Bemorlarda qoʻrquv siqilish kuchayadi va koʻpincha oʻz joniga qasd qilish (suitsid) kuzatiladi.

### **Epilepsiyada uchraydigan suitsid xolatlar**

Epilepsiya – bu surunkali endogen-organik, koʻpincha bolalik yoki yoshlik paytida paydo boʻlgan, xar-xil paroksizmal reaksiyalar bilan va shaxsning tipik, koʻpincha aql zaiflik darajasiga yetgan, oʻzgarishlar bilan xarakterlanadigan kasallik. Uzoq bosq ichlarda oʻtkir va surunkali psixozlar paydo boʻlishi mumkin. Oʻtkir psixozlar ong xiralashuvi va ong xiralashuvisiz kechadigin turlari bor. Ong xiralashuvisiz kechadigan psixozda depressiya kuzatiladi. Bemorlar kayfiyati past, nutqi sekinlashgan, xarakterlar sust boʻladi. Ularda oʻzini ayblash va siqilish paydo boʻladi. Xamma narsadan qiziqishi soʻnadi, oʻzlarini chorasiz baxtsiz deb, xisoblaydilar. Kuchli siqilish, oʻzini ayblash, aybdorlik xissi bemorlarni suitsidga chorlaydi. Bemorlar koʻpincha ogʻir suitsid turini tanlaydilar (oʻzini osish, suvga tashlash).

Oʻtkir psixoz ong xiralashuvi bilan kechganda (ongning nomozshomsimon xiralashuvi: vasvasali, gallyutsinatorli, disforik turi) bemorlarda 5 daqiqa davom etadigan oʻtkir, shiddatli xatti xarakterlar boshlanadi. Bemorlar oʻzlarini yaqin odamlariga jabr yetkazib qoʻyishlari mumkin, xatto oʻldirishgacha boradilar. Masalan: epilepsiyali bemor ayol psixoz xolatida oʻz qizchasini qornini yorib, ichaklarini dorga osib qoʻygan. Yoki epilepsiyali bemor qoʻshnisi bilan choy ichib oʻtirib, birdan psixozga tushib, pichoqni olib qoʻshnisini soʻyib yuboradi. Maʼlumki, psixoz paytida ongsiz xolatda boʻladilar va nima qilganlarini bilmaydi, toʻliq amneziya kuzatiladi. Psixozdan chiqqach, bunday bemorlar qilgan ishlaridan qattik siqiladilar, chuqur depressiyaga tushadilar, oʻzlarini ayblab, bundan keyin qanday yashashni bilmaydilar. Shu paytda ular oʻzlarini oʻldirishga qaror qiladilar va suitsidni amalga oshiradilar.

### **Oligofreniyada uchraydigan suitsid xolatlar**

Oligofreniya- erta yoshda tugʻma yoki orttirilgan umumiy ruxiy rivojlanmaslik, koʻpincha aqli qobiliyatning yetishmovchiligi boʻlgan

progrediyaatsiz patologik xolatlardagi kasallikdir. Ko'pincha oligofreniyali bemorlarda o'tkir psixozlar uchraydi. Psixoz davrida depressiya kuzatiladi. Bu bemorlarda depressiya xolatida passiv, apatik, o'zini kamsitish, o'ziga past baho berish, xonavayron bo'lish fikrlari ustun bo'ladi. Bu xolatni o'tkir kechishi suitsidga sabab bo'ladi. Bemorlar o'z jonlariga qasd qiladilar.

O'tkir psixoz davrida ba'zida gallyutsinatsiyalar kuzatiladi. Gallyutsinatsiyalar kechishi jixatdan chin, eshituv buyruq beruchi (imperativ) mazmunda bo'lib, ovozlarga bemorga o'zini o'ldirishni buyuradi. Bemor ovozlarga bo'ysunadi va ovoz ta'sirida o'z joniga qasd qiladi. Ular xam suitsidni og'ir turini tanlaydilar.

### **Somatik patologiyasi bo'lgan bemorlarda o'z joniga qasd qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Surunkali somatik kasalliklarda o'z joniga qasd qilishning asosiy xavfi nafaqat komorbid depressiv kasalliklar, balki kasallikning shikast nosogen ta'siriga ham bog'liq. Masalan, kasbiy faoliyatda jismoniy faollik zarur bo'lgan tug'ma va orttirilgan jismoniy nogironligi bo'lgan shaxslarning harakatsizligi yoki harakatchanligini qisman yo'qotish. Bu, ayniqsa, ayollar va o'spirinlar uchun to'g'ri keladi. Xatarli neoplazmalarda og'ir surunkali og'riq sindromi, tana azoblanishini kuchaytirishi, kasallikning davolanmasligi va shu bilan bog'liq ijtimoiy izolyatsiya.

Onkologik patologiya, OIV infeksiyasi, tug'ma va orttirilgan jismoniy nuqsonlar fonida ruhiy kasalliklarning klinik ko'rinishida somatik kasallikning davosi yo'qligi va uning qaytarib bo'lmaydigan oqibatlari, o'z hayoti uchun tashvishlanish g'oyasi ustun turadi. Ko'pincha, ushbu bemorlar ushbu kasalliklarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan hayotiy tahdid darajasini oshirib yuborishadi, bu yesa o'limga olib keladigan natijani kutish, o'zlarining moslashuvchan qobiliyatlarini va hayotiy vazifalarning ahamiyatini yetarlicha baholay olmaslik bilan birga keladi.

Natijada, hayotdan ixtiyoriy ravishda voz kechish orqali ko'proq azob chekmaslik, yaqinlaringizni og'ir yordamdan xalos qilish (o'z joniga qasd qilish



patogen vaziyatdan chiqish reaksiyasi sifatida) istagi bilan "kasallikka taslim bo'lish".

Onkologik kasalliklarda o'z joniga qasd qilishga urinish holatlarining 86% kasallikning so'nggi bosqichida sodir bo'ladi. Ko'pincha o'pka, oshqozon va oshqozon osti bezi saratoniga chalingan bemorlarda xavfli o'smalardagi o'z joniga qasd qilish holatlari kuzatiladi. Ko'pincha malign neoplazmalarning keng tarqalgan shakllari bo'lgan bemorlarda o'z joniga qasd qilish xavfi omillari surunkali og'riq sindromi, psixogen depressiya va qarindoshlariga o'z joniga qasd qilish niyatlari to'g'risida xabar berishdir. Xavfli o'smalarga chidamlilik, doimiy uyqusizlik, giyohvandlik va giyohvandlik suitsid xavfining yana bir bashoratchisi hisoblanadi. OIV infeksiyasi va OITSda ruhiy tushkunlik epizodi rivojlanishi bilan xavotir va affektiv buzilishlar kuchayib boruvchi vazn yo'qotishi, xavotir, o'limdan qo'rqish, aybdorlik va befoydalik hissi bilan birga kechishi mumkin. Kasallikning so'nggi bosqichida bemorlarda sezilarli neyrokognitiv buzilishlar rivojlanadi. O'z joniga qasd qilish omili sifatida OIV bilan kasallangan va OITSGa chalingan bemorlar uchun psixosozial asoratlar (giyohvandlik, gomoseksual aloqalar, madaniy va etnik xususiyatlar) hisobga olinadi.

### **Tugallanmagan suitsiddan keyingi suitsidentlarda yurak qon tomir disfunktsiyasi klinikasi**

Malum bo'lishicha suitsidentlarda suitsiddan oldin ruxiy buzilishlardan tajavuzkorlik, bezovtalik, vaxima, qo'rquv, impulsivlik, affekt, ong torayishi bilan bir qatorda qon tomir tizimida xam o'zgarishlar bo'lishi aniqlandi, asosan taxikardiya, aritmiya, qon bosimining ko'tarilishi, qaltirash, et junjikishi, ko'z sklerasi va yuzning qizarishi, yurak soxasida yoqimsiz og'riqlar sezishi kuzatiladi. Tugallanmagan suitsiddan keyingi tematik bemorlarni tekshirganimizda 27,0% da psixopatologik buzilishlar va 25,0 % da ichki organlar funksiyasida, ayniksa yurak qon- tomir tizimida o'zgarishlar ro'y beradi. Bular vegetativ o'zgarishlar: teri oqarishi, ko'rishi, qon bosimining tushishi (gipotoniya), bradikardiya. Bu suitsident xayoti uchun xavf tug'diradi. Bunday bemorlarga shoshilinch yordam

ko'rsatish va xayotini saqlab qolish muximdir. Bu bemorlar dezintoksikatsion, sedativ dorilar bilan bir qatorda psixoterapiya qabul qilgan.

### **Suitsident shaxslarda kuzatiladigan endokrin disfunksiyalar**

Suitsidni amalga oshirgan shaxslarda endokrin disfunksiyalar kuzatilgan morfofenotip konstitutsiya somatoskop bog'liqligi jinsiy deformizimli ayollarda baholandi: 7,0% ayollar infantil – gratsil tip tana tuzilishiga ega bo'lgan, erkaklarga taqqoslanganda 3,0% erkaklarda somatotip o'zgacha, ayollarga nisbatan atletik – displastik va astenik somatotip tuzilishga ega. Normostenik va piknik tip tana tuzilishi ikkala jinsda xam uchrash extimoli teng. Suitsiddan oldingi davrni analiz qilinganda, somatotip bemorning premorbiddagi tormozlitip (psixiastenik, astenik, shizoid, va gipotim) bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatdi, presuitsidal davridagi qisqa affektiv taranglik normastenik va atletik somatotip, gipertimik va epileptoid shaxs xususiyati odamlarda zaxarlanish turi xos.

Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki surunkali endokrin kasalliklarda suitsid xavfi yuqori bo'ladi. Kasallik avj olish davri, kasallik og'irligi yoki mehnat qobilyatini yo'qotilishiga nisbatan suitsidal xavf axamiyati ko'proq bo'ladi.

Gipoterioz kasalligida apatik – depressiv xolat kuzatiladi, bemorlarda o'ta qo'zg'aluvchanlik, kayfiyat labilligi bo'ladi. Bu esa bemorni katta stressga olib keladi. Bunda bemorlar kasallik o'z kuchini ko'rsatmasdan oldin o'z xayotiga nuqta qo'yishga urinadilar. Bunday bemorlarda zndakrin psixosindrom kuzatiladi. Bu xolatda bemorga xayot ma'nosiz, qora rangda, yashash zerikarli va quvonchsiz bo'lib qoladi. Bunday fikr bamorni bir soniya xam tinch qo'ymaydi va bemorda o'z-o'zini o'ldirish fikrlari paydo bo'ladi. Bunday bemorlarda suitsid xolatlar impulsiv xarakterda bo'lib, bunda qalqonsimon bez giperfunksiyasi muxim rol o'ynaydi. Demak suitsid rivojlanishida endokrin disfunksiya muxim rol o'ynaydi.

## **SUISID VA PARASUISID XOLATLARINI YUZAGA KELISHIDA AXAMIYATLI BO'LGAN AYRIM XAVF OMILLARINING TAVSIFI**

Mazkur ko'p qirrali muammoga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlangan va ularda o'z o'zini o'ldirish xodisalarining turli jabxalari o'rganilgan. Xususan parasuitsidning turli aspektlari psixiatr psixolog ijtimoiy gigiyena soxasi mutaxasislari tomonidan o'rganilgan bo'lsa suitsid ko'prok sud-tibbiy ekspertlar tomonidan taxlil etilgan. Mazkur tadkikotlarning natijalari esa suitsid va parasuitsid xodisalarining ko'lami vujudga kelish sababi va motivi epidemologik xavf omillari bo'yicha sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatmoqda.

Ayni vaqtda o'z o'zini o'ldirish xodisalarining oldini olishga qaratilgan profilaktika chora tadbirlari parasuitsid xodisalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib psixiatrlar tomonidan ishlab chiqilganligini takidlash lozim. Bu esa preventiv tadbirlarning suitsid xolatlarida xam samarali bo'lishi mumkinligini shubxa ostiga qo'yadi.

Tekshiruvlardan ma'lum bo'ldiki, tugallangan suitsid holatlarining 30,34% i, parasuitsid holatlarining esa 50,81% i, turli darajadagi mastlik xolatlarida sodir etilgan.

Suitsidal xodisalarining o'rganish bo'yicha olib borilgan barcha tadqiqotlarning pirovard maqsadi ushbu hodisalarining yuzaga kelish sabablarini aniqlash, o'rganish orqali mazkur holatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir. Surishtiruv- tergov hujjatlarini tahlil etish jarayonida ushbu hodisalarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillarning bir necha turi farqlanib, suitsid va parasuitsid holatlarida ular aynan emasligi aniqlandi. Xususan, tugallangan suitsid holatlarining yuzaga kelishida somatik kasalliklar salmoqli o'ringa ega bo'lgan bo'lsa(jami hodisalarining 21,50%), parasuitsid holatlarida oilaviy kelishmovchiliklar o'rganilgan. Hodisalarining qariyb yarmida (41,86%) uning sababi sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, tugallangan suitsid holatdarida alkogolizm (13,44%), ruhiy kasalliklar (11,75%)

ahamiyatli bo'lgan bo'lsa, parasuitsid holatlarida somatik kasalliklar (5,28%), alkogolizm (4,47%) hodisaning sababi sifatida etirof etilgan. Giyoxvand moddalarni iste'mol qilish hodisalarning 0,5% ida ahamiyatli bo'lgan.

Suitsid hollarining faqat 6,45% ida, parasuitsid holatlarining esa 17,87% ida iqtisodiy muammolar noxush hodisaning sababi sifatida qayd etildi.

O'tkazilgan tekshiruv natijalari suitsid va parasuitsid holatlarida epidemiologik xavf omillari, xususan suitsidentlarning yoshi, jinsi, autoagressiya harakatlarini amalga oshirish usullari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Jumladan, suitsid holatlari asosan 40-50 yoshlardagi erkaklar tomonidan, o'zini osish orqali sodir etilsa, parasuitsid holatlari aksincha 30 yoshgacha bo'lgan suitsidentlar tomonidan o'tkir jismlardan jaroxat yetkazish, yoki o'tkir zaxarlanish orqali amalga oshirilgan, bunda jinslar nisbati deyarli teng bo'lgan.

Shuningdek, hodisalarning sabablari tahlil etilganda ma'lum bo'ldiki suitsidning sababi sifatida asosan turli xil kasalliklar (somatik, onkologik va h.k.) e'tirof etilgan bo'lsa, parasuitsid holatlarida oilaviy kelishmovchiliklar aksariyatni tashkil etgan. Iqtisodiy qiyinchiliklar suitsidning faqat 6,45% ida, parasuitsidning esa 17,87% ida qayd etilgan. Bu esa bilvosita ayrim tadqiqotchilarning iqtisodiy qiyinchiliklar o'z joniga qasd qilish hodisalarining yuzaga kelishida dominant omil emasligi xaqidagi fikrlar asosli ekanligini tasiqlaydi.

O'tkazilgan tekshiruv natijalariga ko'ra suitsidal hodisaning turli ko'rinishlaridan bo'lgan tugallangan va tugallanmagan suitsid hodisalari vujudga kelish sabablari va epidemiologik xavf omillari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi. Binobarin, hamisha parasuitsid oqibatida tugallangan suitsidga olib kelmaydi va aksincha, barcha tugallangan suitsid anamnezida parasuitsid kuzatilmaydi.

Mazkur hodisalarning oldini olishga, ularning sonini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda turli soha mutaxassislari, jumladan sud-tibbiy ekspertlar tomonidan suitsidal hodisalarni o'rganish bo'yicha olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijalariga tayanish lozim.

## **SUIDSID XOLATLARINING SUD-TIBBIY TAXLILI**

O'z joniga qasd qilish o'limning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir, natijada o'lim paytida sud-psixiatriya ekspertizasi o'z joniga qasd qilish hodisasini o'rganish va ixtiyoriy o'limni oldini olish bo'yicha profilaktika choralarini tayyorlashning muhim vositasidir.

O'z o'zini o'ldirish xolatlari zo'raki ulim strukturasi yetakchi urinlardan egalagan xolda, kup kiralij ijtimoiy-demografik muamollardan biridir. Jaxondagi rivojlangan mamlakatlarning rasmiy statistik ma'lumotlarida ushbu xolat usib borish tendetsiyasiga ega ekanligi aksariyat tomonidan etirof etilmokda.

O'lim faktlari bo'yicha ekspertiza sud-psixiatriya tadqiqotlari guruhiga kiradi va amalga oshirilayotgan protseduraning maqsadlari va vazifalariga qarab, o'lim oldidan, shuningdek, undan oldin bir muncha vaqt bo'lgan odamning holatini tahlil qilishdir. Ekspertiza o'limdan keyin o'tkaziladi va qoida tariqasida zo'ravon o'lim belgilari bo'lmagan taqdirda tayinlanadi. Shuning uchun ushbu tadqiqotning yana bir nomi - o'limdan keyingi tekshiruv. Tadqiqot o'lim holatlari va sabablarini aniqlashtirish, shuningdek o'limdan oldingi davrda marhumning ruhiy holatini aniqlash uchun, agar ular biron bir qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni sodir yetgan bo'lsa, o'tkazilishi mumkin.

Marhumning ruhiy holati o'rnatiladigan vaqt davomida har xil qarashlar mavjud. Sud-psixiatriya ekspertizasining ba'zi metodistlari vafot etgan odamning o'lim holatini baholash zarur, boshqalari o'z joniga qasd qilishdan oldin ma'lum vaqtni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Tadqiqotni olib boradigan mutaxassis o'ziga yuklatilgan vazifalar va ishning o'ziga xos holatlaridan kelib chiqib metodologiyani tanlaydi.

Ko'pincha, o'lim bo'yicha ekspertiza tasdiqlangan va o'z joniga qasd qilish gumonlari tekshirilganda qo'llaniladi. Agar o'z joniga qasd qilish faktlari tergov tomonidan aniq tasdiqlanmagan bo'lsa, o'lim holatlarini aniqlashtirish va uning sabablarini aniqroq aniqlash uchun tadqiqot tayinlanadi. Agar o'z joniga qasd

qilish faktlari aniq bo'lsa, unda tekshiruv o'z joniga qasd qilishdan oldin bir muncha vaqt marhumning holatini aniqlashga qaratilgan.

O'lim faktlari bo'yicha ekspertiza aniqlangan zo'ravonlik o'lim izlari bo'lmagan ko'rilayotgan jasadlarga nisbatan, shuningdek o'z joniga qasd qilish jasadlariga nisbatan amalga oshiriladi. Istisno - bu davolanish muassasalari devorlari ichidagi kasalliklardan o'lish holatlari. O'lim ekspertizasi tergov organlari yoki sud qarori bilan tayinlanadi. Bundan tashqari, tadqiqot marhumning qarindoshlari yoki boshqa manfaatdor shaxslarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin.

O'lim fakti bo'yicha ekspertiza o'tkazadigan mutaxassis, o'ziga yuklatilgan vazifalar va javobni talab qiladigan savollar bilan tanishtiradi. Ularning o'ziga xos xususiyatlariga qarab tadqiqot metodologiyasi aniqlanadi va mutaxassis ishlay boshlaydi. Tahlil davomida quyidagi yekspert faoliyati amalga oshiriladi:

Ishda guvohlar, marhumning qarindoshlari va do'stlari ko'rsatmalarini o'rganish. Ushbu guvohliklarga asoslanib, marhumning ahvoli to'g'risida hukm chiqarilishi mumkin.

Marhumning qog'oz va yelektron hujjatlari, shu jumladan xatlar, kundaliklar, boshqa hujjatlar va agar mavjud bo'lsa, o'z joniga qasd qilish to'g'risidagi yozuvni o'rganish.

O'lim sababini aniqlash uchun marhumning jasadini tekshirish.

Toksikologik tekshiruv, marhumning tarkibida sizda giyohvandlik va zaharli moddalar, shuningdek spirtli ichimliklar mavjudligini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu tahlil natijalari o'lim sabablarini aniqlaydi (masalan, zaharlanish yoki giyohvandlik vositalarining haddan tashqari dozasi) yoki odamning ruhiy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni, masalan, alkogol yoki giyohvandlik mastligini aniqlaydi.

Tibbiy hujjatlarni o'rganish - vafot etgan shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida ambulatoriya kartalari, tibbiyot muassasalaridan ko'chirmalar va boshqalar. Marhumning psixiatrik tarixiga -

ixtisoslashgan mutaxassislariga murojaat qilish va kasalxonaga yotqizish, shuningdek, psixikaga ta'sir qiluvchi dori-darmonlarni qabul qilish tarixiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ekspert tadbirlarini o'tkazgandan so'ng, o'lim fakti bo'yicha ekspertiza o'tkazadigan mutaxassis unga berilgan savollarga javob beradi va uning professional fikrini shakllantiradi. Keyinchalik, mutaxassis asosiy hujjatni - ekspert xulosasini tuzishga kirishadi, unda barcha o'tkazilgan tahlillarning tavsifi, o'rganilgan hujjatlar nusxalari, ish bo'yicha foto va video materiallar va boshqalar kiradi. Ekspert xulosasida ekspertga berilgan savollarga javoblar ham mavjud. Mutaxassis o'zi tomonidan tuzilgan xulosani o'z imzosi bilan tasdiqlaydi va undagi ma'lumotlar uchun javobgardir. Mutaxassis sudda guvoh sifatida o'zi bajargan ishi to'g'risida tushuntirish dalillarini berish uchun kelishi mumkin.

O'lim fakti bo'yicha ekspertizaning vazifalari sodir bo'lgan voqea sharoitlari, shuningdek, ekspert choralari erishishi kerak bo'lgan maqsadlar bilan belgilanadi. Formulyatsiya qilingan tadqiqot maqsadlari ekspertiza ishlab chiqarish to'g'risidagi shartnomada yoki tadqiqot to'g'risidagi qarorda belgilanadi. Ushbu hujjatga qarab, mutaxassis texnologiyalar va tahlil metodologiyasini belgilaydi.

O'lim fakti bo'yicha ekspertizaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

Marhumning o'limi sabablarini aniqlash. O'lim faktini o'rganish ko'pincha o'limning haqiqiy sabablarini aniqlashga yordam beradi, natijada tergov qilinayotgan ish boshqa jinoyat uchun kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Masalan, tekshiruvda zo'ravonlik bilan o'lim izlari aniqlanishi mumkin.

Vafot etgan kishining ruhiy holatini o'limdan sal oldin, shuningdek o'lim vaqtida aniqlash. Marhumning ruhiy holati uning sodir bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lish qobiliyati, shuningdek, o'zining va boshqa odamlarning harakatlariga tanqidiy munosabati bilan baholanadi.

Vafot etgan kishining qaror qabul qilish qobiliyatiga, shuningdek sodir bo'layotgan voqealardan xabardorlik darajasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan hissiy va boshqa omillarni o'rnatish. Kuchli emotsional holatlar, shuningdek,

fojiali hodisalar tufayli yuzaga kelgan stress odamga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, natijada bunday harakatlarga moyil bo'lmagan odamlar o'z joniga qasd qilishga kirishadilar.

O'limdan oldin vafot etgan kishining aql-idrokini (huquqiy layoqatini) aniqlash. Ko'pincha, o'z joniga qasd qilishdan oldin, odam qonuniy majburiy bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshiradi - masalan, u sotib olish-sotish shartnomasini, xayr-ehsonni imzolaydi, vasiyatnoma tuzadi va hokazo. Bunday hollarda, bitimning qonuniyligini tasdiqlash yoki aksincha, uning yaroqsizligini aniqlash uchun ular muayyan harakatlar sodir etilgan paytda marhumning huquqiy layoqatini baholashga murojaat qilishadi.

Marhumning o'z joniga qasd qilishiga sabab bo'lgan boshqalarning harakatlarini o'rnatish. Ushbu vazifa marhumni o'z joniga qasd qilish faktini ochish uchun qo'yilgan, bu jinoiy javobgarlik hisoblanadi. Marhumga ta'sir ko'pincha uning holati bilan birgalikda o'rganiladi, chunki uning harakatlaridan xabardor bo'lmagan odam har qanday tashqi ta'sirga duchor bo'lishi mumkin.

Turli soxa mutaxassislarining e'tiboriga molik bulgan ushbu masala uzok vaqtlar davomida Sobik Ittifok respublikalarida, jumladan O'zbekistonda xam tadkikotchilarning nazaridan chetdan kolgan. 90-yillardan boshlab psixiatrlar tomonidan ayrim tavsif tusiga ega bulgan izlanishlar utkazilgan bulib, ularning aksariyati uz-uzini uldirish xarakat, ya'ni parasuitsid masalalariga bagishlangan. Tugallangan suitsid xolatalri esa shu vaktgacha rejali tarzda, keng kulamda urganilmagan.

Shu sababli, amaldagi konun-tartibga binoan uz-uzini uldirish xolatlari sud-tibbiy ekspertiza utkazish shartliligini inobatga olgan xolda, sud-tibbiy ekspertiza materiallari buyicha mazkur xolatlarini urganish maksad kilindi.

### **Suitsidentlarda o'tkazilgan tekshiruv natijalari ko'rsatkichlari.**

Qayd etilgan yillarda sodir bo'lgan tugallangan suitsid xollari bilan bog'lik sud-tibbiy ekspertiza materiallari atroflicha taxlil etildi. Bu davrda suitsid xollari bilan bog'liq bo'lgan 1450 ta murda ekspertizasi o'tkazilgan bo'lib, murda



xulosalaridan tashqari xolatlar joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, ekspertiza taqdim etilgan tibbiy xujatlar ma'lumoti, ekspertiza jarayonida o'tkazilgan qo'shimcha laboratoriya tekshiruvlari natijalari xam o'rganildi. Suitsid xolatlarining epidemiologiyasi va ularning vujudga kelishidagi xavf omillarining o'rganish uchun maxsus programma yaratildi va olingan natijalarga tegishli statistik ishlov berildi.

Tekshiruv yillarda o'tkazilgan jami murda ekspertizasining 43,43% i zo'raki o'lim turlari bilan bog'lik bo'lib, suitsid xolatlari zo'raki o'lim strukturasi salmoqlik o'rin tutgan. Xususan jami murdalar ekspertizasining 9,09% ini, zo'raki o'lim bo'yicha o'kazilgan ekspertizalarining 20,93% ini suitsid xolatlari tashkil etgan. Xuddi shunday ko'rsatkichlar boshqa tadqiqotchilar tomonidan xam qayd etilgan.

Ta'kidlash lozimki, taxlil etilgan yillar davomida Toshkent shaxrida o'z-o'zini o'ldirish xolatlariturgin kamayib borish dinamikasida ega bo'lgan. Jumladan, agar 1995 yilda tugallangan suitsid xolatlari jami murdalar ekspertizasining 11,63% ini, zo'raki o'lim xollarining esa 25,69% ini tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda ushbu ko'rsatkichlar tegishlicha 7,58% va 20,93% larga teng bulgan.

Tugallangan suitsid xollarida ulim xillaring struktursada mexanik asfeksiyasining kurinishlaridan bulgan osilish yetakchi urinni egallashi xakidagi fikr bizning tekshiruvlarimizda xam uz isbotini topdi. Jumladan, taxlil etilgan xodisalarning 73,35% ida ulim aynan osilish natijasidagi mexanik asfeksiyasidan kelib chikadi. Zaxarlanish orqali o'z joniga qasd qilish xollari xam nisbatan keng tarqalgan bo'lib, ular 259 (19.92%) suitsidentda qayd etilgan. O'limning boshqa xillari nisbatan kam uchragan.

O'lim xillari strukturasi tekshiruv yillarida taqsimlanishi o'rganilganda unda o'ziga xos xususiyat mavjudligi malum bo'ladi. Yani tekshiruv yillarida osilish yo'li bilan o'z joniga qasd qilish xolatlari ortib borish (1995 yilda 70.50% dan 1999 yilda 77.07% gacha) va aksincha zaxarlanish orqali suitssid xolatlari

kamayib borish dinamikasiga ega ekanligi aniqlandi (1995yilda 21.74% dan 1999 yilda 10.90% gacha).

O'zini o'zi o'ldirish xolatlari asosan erkaklar tomonidan sodir etilishi aksariyat tomonidan tan olingan. Bizning tekshiruvlarimizda jami xodisalarning 75.45% ini erkaklar tashkil etgan bo'lib ushbu ko'rsatkich tekshiruv yillari bo'yicha sezilarli farqlanmagan.

Turli jins vakillarida o'lim xillari bo'yicha farqlanishlar borligi aniqlandi. Osilish ko'proq erkaklarda kuzatilgan bo'lsa (82.74%) o'zini yoqish ko'rsatkichlari ayollarda kattaroq bo'lgan (57%). Shuningdek tepadan tashlash temir yo'l travmasi tomirini kesish va o'q otar qurollardan sodir etilgan autoagressiya xarakatlari xam aksariyat erkaklarda qayd etilgan (tegishlicha; 61% 66% 81% 80%). Zaxarlanish erkak va ayollarda deyarli teng uchragan (tegishlicha; 50.58% va 49.42%).

O'z o'zini o'ldirish xolatlarining uchrash intensivligi suitsidentlarning yosh guruxlari bo'yicha taxlil qilinganda ularda uchta dinamik ko'tarilish davrlari mavjidliligi aniqlandi. Kam intensivlikdagi birinchi ko'tarilish davri 20 25 yoshlarga (9.64%) to'g'ri keladi. Ikkinchi asosiy ko'tarilish davri 41 50 yoshlilar guruxida (21.77%) kuzatilgan. Uchinchi ko'tarilish davri 60-yoshdan oshgan suitsidentlar giruxida (22.18%) qayd etilgan. Ijtimoiy iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlar nuqtai nazaridan birinchi va ikkinchi ko'tarilish davrlari aloxida etiborga molikdir.

Suitsidentlarning yoshi va jinsi o'rtasidagi o'zaro bog'lanish o'rganilganda xodisalarning eng ko'p uchrashi erkaklarda 40-45 yoshlarga ayollarda esa 60 yoshdan katta yoshlilar guruxida qayd etilgan. Bu xolat boshqa mualliflarning natijalaridan sezilarli farq qiladi.

## **SUISIDAL XOLATLARNI KAMAYTIRISH VA UNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA – TADBIRLAR**

Premorbid davrida suitsident shaxsiyati xarakteristikasining biologik va ijtimoiy kompleksini shartli ravishda shaxsiyat xarakteristikasini «ijtimoiy - premorbid» kompleksi deb ataladi. Bu kompleksga quyidagilar kiritilgan: shaxsning xakteriologik xususiyatlari, irsiyatining og‘irlashganligi, ma’lumoti, suiqasd vaqtida suitsidentning oilaviy holati va yoshi

Modomiki suitsidentlar o‘rtasida premorbid amaliy amaliy jixatdan soglomlarda va chegaraviy buzilishlari bor odamlarda ko‘p uchrar ekan, suitsidentlar shaxsiyatini ruxiy xususiyatlarini o‘rganish aloxida axamiyat kasb etadi.

Ekstremal xayotiy xollarda tekshirilgan bemorlar dispanser nazoratida bo‘lmaydi. Tekshiruvlarda amaliy jixatdan sog‘ shaxslarda va xarakterida aksentuatsiyasi bor shaxslarda situatsion reaksiyalar tashxislangan.

Tekshirilganlarda xakterni hissiy tipidagi aksentuatsiyasi ustun turadi. Bunday aksentuatsiyali shaxslar uchun emotsionallik, ta’sirchanlik, bezovtalik, ko‘p gapirish, qo‘rqoqlik, nozik tuyg‘ular sohasida o‘ta ta’sirchanlik xarakterli. Biz tekshirgan suitsidentlar davolanish davomida quyidagi davo turlarini olgan, 100% bemor dezintoksikatsion, 52,4% sedativ dorilar – fenozepam, valium, antidepressantlar - amitriptilin, Zoloft, Fevarin, Iksel kabul kilgan, 47,6% suitsident psixoterapiya, asosan ratsional, suggestiya-gipnoterapiya qabul qilgan.

Tugallanmagan suitsiddan keyingi bemorlar 47,6% bemorlar psixaterapiya (asosan ratsional psixoterapiya, gipnoterapiya va autagen trenirovka) bilan bir qatorda medikamentoz davo olgan: 52,4% faqat medikamentoz davo olgan.

Psixoterapiya bilan bir qatorda medikomentoz davo olgan bemorlarda psixopatologik simptomatika tezda yo‘qolib, xolati 2-3kun mobaynida stabillashib, kayfiyati yaxshilangan. Psixopatologik simptomatika 5-7 kungacha kuzatilgan bemorlarda xissiy labillik saqlanib qoldi. Bir xaftadan ortikrok ijobiy dinamika

kuzatilmagan bemorlarda uzoq vaqtgacha asteno-subdepressiv simptomatika, uyquning buzilishi kuzatildi.

Shunday qilib kompleks davolashda psixoterapiyani qo'llash tematik bemorlarda xamma davo effektini oshiradi. Qo'llanilayotgan kompleks dori moddalardan amitriptilin, valium, relanium limfatrop yo'l bilan yuborilganda tematik bemorlarni davolashning afzalliklari bir muncha oshadi, ulardagi psixopatologik buzilishlar tezda reduksiyaga uchrab, davo muddati qisqaradi. Tekshirgan suitsidentlar shu davr ichida suitsidni takrorlamagan, ularning aksariyati o'qishni davom ettiryapti, turmushga chiqib farzand tarbiyalamokda. Davolashning psixoterapiya usuli suitsid xolatni oldini olishga, takrorlanmasligiga qaratilgan.

Tugallanmagan suitsiddan keyingi bemorlarni sogligini tiklashda rehabilitatsiya muximdir. Bu turli chora tadbirlarni patologik jarayonni kaytalanmasligini, bemorni faoliyatini tiklash, ularni jamiyatga va foydali mehnatga kaytarishni uz ichiga oladi. Zamonaviy tibbiyot bemorlarni sogligini tiklashda avvalom bor shaxs xususiyatlarini va ijtimoiy bogliklikni tiklashga katta e'tibor bermokda. Asoson oilaviy terapiya utkazish muximdir. Gap oilada tushuntirish va ukitish ustida boradi. Davolanib chikib ketgan xar - bir suitsident terapevt, psixolog bilan boglanib turishi kerak. Ularga turli mashgulotlar, mehnat, turli kizikarli dam olishni tashkil kilishi lozim. Bular oilada, kollektivda tarbiyalash bilan birga olib boriladi. Suitsidentlarni sogligini tiklash vrach va tibbiy xodimlardan kup kuch kuvvat, sabr – tokat, bemor yashayotgan muxit bilan ish olib borishi talab kilinadi.

Suitsidal xolatlarni kamaytirish va uni imkoni boricha oldini olishga karatilgan chora – tadbirlar uchta turga bulinadi.

1. Maktab va kollejlarda psixologik tekshiruvlar yuli bilan xarakter xususiyatlarini aniklash.

2. Bu guruxdagilarga psixologik va psixopatologik yordam kursatish.

3. Tugallanmagan suikasdni kompleks davolash va ratsional psixoterapiya usulidan keng foydalanish.

Xar bir usmirni ulimi bilan butun borlik betakror fikrlar, xissiyotlar, kechinmalar olami individual va betakror tajriba olami xalokatga uchraydi. Shubxasiz, jamoatchilik bunga nisbatan bee'tibor va ishtiroksiz turishlari kerak emas.

Bizning umumiy vazifamiz imkoni boricha suikasd tarkalishini chegaralash, ularni samarali oldini olishni urganishdan iborat. Birok bu vazifa uta murakkab bulib, uning yechimi uchun jamoatchilik mikyosida makro va mikro ijtimoiy darajadagi tub ijobiy siljishlarga erishish kerak.

Muammo global va maishiy darajada kolmokda. Bu muammolar kandaydir yechim topa olmas ekan, kuchli odamni xam uldirish mumkin.

Suikasd sonini yanada ortishini oldini olish uchun, usmirlarga uz vaktida yordam kursatish va kullab kuvvatlash kerak, xech bulmaganda maslaxat berish lozim. Reabilitatsiya usullarini yanada samaralirok kullash uchun doimiy ravishda arboblarga, xorijiy adabiyotlarga va nafakat axolini davolashga karatilgan usullar, balki, odamlarda suikasdga turtki buluvchi sabablarni aniklash va imkoni boricha uni bartaraf etishga karatish kerak.

Xar bir odam mumkin bulgan suikasdni aniklash va oldini olish uchun kandaydir darajada psixolog bulishi lozim.

Suikasdlarni oldini olish uchun asosiy zveno, 1953 yilda asos solingan anonim telefon xizmati («ishonch telefonlari») xisoblanadi. Londonda Chad Var ruxoniysi bilan Yevropa va Amerikaning barcha davlatlarida tez tarkala boshladi. Telefon xizmatining maksadi – tang xolatda turgan va uzini uldirishni uylab turgan xar kanday odamga uni dust sifatida eshitishga tayyor bulgan. Abonetga u duch kelgan tang xolatni yengishga yordam bera oladigan xodim bilan telefon alokasini taklif etishga urinishdir. Bu xizmat prinsipi orasida ishonch, absolyut maxfiylik, xizmat uchun takdirlanishni talab kilishni va xar kanday bayonotni ta'kiklash asosiy urinni egallaydi. Bu xizmatning maksadi shunga asoslanganki, bunda,

muxokama kilmaslik, tankid kilmaslik va xatto ajablanmaslik abonentni mustakil tugri qaror kabul kilishiga yordam beradi. Axoliga keng miqyosda axborot beriladi. Ishonch telefonlari borligi xakida «umidsizlik va depressiyada» tugri yordam kursatiladi. Lekin bunda suikasd tilga olinmaydi.

Suikasd xakida uylayotgan usmirlar uzini keraksizdek sezadi. Ular umidini yukotib buladi. Uzini kechinmalarini boshkalar yelkasida ogir yuk bulib yotibdi deb uylaydi. Uzini xis – tuygularini aytmaydilar. Ba’zilari uz ustilaidan kulishlaridan kochadilar. Chunki suikasd xakida gapirayotganini jiddiy kabul kilmaydilar yoki bunga e’tibor bermaydilar. Bunday reaksiya tugrilab bulmas xolatga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sizning tanishingiz, dustingiz yoki karindoshingiz bu mavzuda suz ochsa, bunga jiddiy suxbat kurishga vakt topish kerak.

U usmirlarni murojaat kilinishi mumkin bulgan kishi borligiga, karindoshlari, dustlari, psixologlari shubxasiz uni eshitishga tayyor turishlari va bundan buyon nima maslaxat, yordam kerak bulsa sidkidildan bu masalani xal kilishga tayyor ekanliklariga ishontira olishi darkor. Bunday suxbatni boshlash kiyin bulsa xam u juda zarurdir.

25.09.1999 yilda № 559 sonli «Respublika suitsidologik xizmatini takomillashtirish tugrisidagi» buyrugi kabul kilingan. Shunday kilib struktur bulinmasi uslubiy suitsidologik markaz «tang xolatlarni urganish uchun statsionar, ijtimoiy – ruxiy yordam kursatish, ishonch telefonlari» bulgan suitsidologik xizmat kursatish ishi boshlangan.

Profilaktika tizimi organlari ishini usmirlarni kizikishlariga karatilganligi, usmirlarni xayot bilan vidolashishga olib kelgan. Sabab va sharoitlarni aniklamasligi, xar bir bunday faktlarni tula taxlil kilmasligi, buning natijasida shunga uxshash fojiali xodisalarni oldini olish va profilaktika kilish choralarni ishlab chika olmasligi jiddiy xavotir tugdiradi. Amaliy jixatdan barcha ma’lumotlarda fakt buyicha voyaga yetmaganlar urinishlarini normal xolat deb xisoblamaslik kerak. Suikasd orkali xayotini tugatganlar xayot bilan vidolashishga

uringan usmirlar uchun ruxiy rehabilitatsiya va yordam xakida ma'lumotga ega bulishgan.

Psixoterapevtik ta'sir muxim komponent xisoblanib, u psixologga, psixoterapevtga murojaat kilishni tavsiya kiladi. Chunki bu xolat mutaxassis ishini talab kiladi.

Pedagogning xattoki shunday roli xam uz mevasini beradi. Pedagog uchun bu ishga biroz chin xamdardlik va ruxiy iliklik berish muximdir. Suikasdga urinuvchi usmirlar bilan ishlashda pedagoglar muxim rol uynaydi. Bu yordamni usmirlarni vaktida aniklash va birlamchi profilaktika deb e'tirof etish lozim.

Bunday bolalarni vaktida aniklashdagi pedagogning yordamini, pedagogni bola bilan tez – tez mulokotga kirishib, undagi muammol xolat, apatiya, agressiya va xokazolarni bilish bilan ifodalash mumkin. Pedagog bu usmirlarga maktab shifokorining ota – onaning, maktab ma'muriyatining e'tiborini karatishi mumkin. Suikasdni oldini olishda kompleks choralarni kurish uchun kattarok usmirlarga tushuntirish suxbatini utkazishni taklif kilishi mumkin.

Psixologga bu muammo ustida ishlashga arziydi. Chunki usmirlik – bu utish yoshi bulib, bunda shaxsiyat xali tula shakllanmagan bulgani uchun xar bir usmir xayotdan nima istashini bilmaydi. Bu xayotda uzini kerak emas deb uylaydi. Shuning uchun xam xayotini suikasd bilan tugatadi.

Psixologlar ota – onalari profilaktikasi sifatida bitta vositani taklif etiladi. Bu uz farzandini kayfiyatiga e'tiborli bulish, uni kullab – kuvatlash, bekorga urishmaslik, muntazam suxbat kurib turishdan iboratdir. Bir xisobda maslaxat albatta kimmatli ortikcha e'tibor xam bermaydi. Ammo bolani birinchi muxabbatini, ukituvchilar bilan nizosini, tengdoshlari bilan urishishini chegaralamaslik kerak. Axir oldinda ugil bolani xarbiy xizmat kutyapti. Shu bilan birga bolani umumiy jazolamaslik xam notugri, chunki bola taltaygan, erka, isterik bolalar bulishi mumkin. Bola uchun xayotiy kiyinchiliklarni xam yoshlikda, xam katta bulganida yengish uchun ichki immunitet xam kerak. Bu immunitet bardosh va kamtarlik, ishonch va barcha yuz bergan vokea – xodisalar xakida tugri fikr

yuritish, tushunish, xayot sinovlarini uzini foydasiga deb kabul kilishdan iboratdir. Kimdir kulini xayotdan siltab, bularga karshi borish juda murakkab deydi.

Agar ota – onasi dinga e'tikod kilsa va ibodat kilib turishsa, tabiiyki bola ruxiyatiga yashash uchun kerakligini oladi. Maktabda Pravoslavlik asoslrini ukitishi, ruxoniy bilan uchrashuv, mukaddas joylarga ekskursiya xam ma'lum darajada tula diniy tarbiyaga olib kelmasa xam xech bulmaganda shaxsiyatni tugri shakllanishi uchun zarur bulgan minimal diniy dunyokarash paydo bulishiga olib keladi. Nima bulganda xam maktabdagi diniy madaniyat darslari bola kabul kilishi uchun murakkab emas va xozirgi kunda utkazilayotgan psixologik testlar va ma'ruzalardan kura samarasi yukorirokdir.

Zamonaviy bolalar yukori axborot texnologiyalari asrida yashab xar bir soniyada megabaytlab ma'lumotlar olishib uzlarining 50 yoki 100 yil avvalgi tengdoshlaridan tezrok voyaga yetmokdalar. Xar kuni ularga bobolari va momolari bilmagan muammolar bilan duch kelishga, ota – onasi kilmagan tanlovlarni kilishga, boshka avlodlari boshdan kechirmagan xissiy kechinmalarni kechishiga tugri keladi. Ya'ni zamonaviy bolalar anik bir diniy dunyokarashsiz, ma'lum ruxiy bilimlar tizimisiz tula konli xayot davom etishi mumkin bulmagan xolda xayotga erta kirishmokda. Evolyutsiyani shunday busagasiga yetib keldikki, jamiyatni ruxiy – axlokiy potensiali rivojlanmay turib keyingi intellektual va axborot texnologik rivojlanishi mumkin emas. Bolalar va usmirlar urtasida suikasdni usib borishi bu gipotezani bir muncha tasdiklaydi.

Suikasd tarkalishini kamayishida ba'zi ruxiy va xatti – xarakat buzilishlarini adekvat profilaktikasi va davolash muxim rol uynashi e'tirof etilgan. Suikasdnlarni birlashishi profilaktikasida depressiyalar, ichkilikka berilish va shizofreniyalarni erta aniklash va davolash muxim urin egallaydi. Bu soxada umumiy amaliyot shifokorlari va depressiya xolatidagi bemorlarni tashxislash va davolashda birinchi yordam xodimlarini tayyorlovchi ukuv dasturiga kata axamiyat berilmokda. Gotland orolida, Shvetsiyada umumiy amaliyot shifokorlariga bunday dasturni amalga oshirilishini natijasida suikasd koefitsiyenti, ayniksa ayollar



orasida keskin kamaygan. Lekin dastur tugatilgach darxol yana ortgan. Bu suitsidologiyada preventiv choralarni samaradorligidan dalolat beradi.

Suikasd sonini ortishi yanada samaralirok profilaktik dasturlarni va suitsidologik xizmatni yanada rivojlanishini ishlab chikishni talab kiladi.

Suitsidal xatti – xarakatlarni profilaktikasi bilan shugullanuvchi deyarli barcha mualliflar suikasdlar oldini olish uchun zaruriy komplekslar deb kuyidagilarni xisoblaydilar: yuristlar, psixiatrlar, psixologlar xarakatini birlashtirish; medikamentoz davu, psixoterapiya utkazish, ijtimoiy yordam kursatishdir.

Suikasdlar profilaktikasida bemorni psixopatologik, shaxsiyatiga oid xususiyatlarni psixologik nizo xarakterini, suikasdning ma'nosini, antisuitsidal omillarni borligini va ijtimoiy dezadaptatsiya darajasini xisobga olish kerak.

An'anaviy profilaktika ishi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi – prevensiya, intervensiya va postvensiyalarga bulinadi. Prevensiya bu ukitishdir. Yoshlar suitsidologiya xakida bilimga ega bulish kerak va suikasdni oldini olish mumkinligiga ishonish kerak. Ikkilamchi profilaktika presuitsiddan to postsuitsidgacha bulgan butun suitsidal davr mobaynida yordam kursatish va davolashdan iborat. Mualliflar suikasd fakatgina tibbiyot muammosi emas xisoblaydilar. Biologik, neyropsixik, ijtimoiy, psixologik va falsafiy aspektlar muxim urin egallaydilar. Shunday kilib intervensiya jarayonida psixologlar, psixiatrlar, ijtimoiy va krizisli ishchilar, ukituvchilar va boshka ukitilgan profesional mutaxassislar jalb etiladi.

Uchlamchi profilaktika – postvensiya birinchi marta Shnaydman (1973y) tomonidan taklif etilgan. Suitsidal xarakatdan keyin suikasdni psixotravmatik ta'sirini bartaraf etishni nazarda tutiladi. Bunday yordam nafakat tirik kolgan suitsidentlarga, balki, ularning karindoshlari, dustlari va yakinlariga xam kursatiladi. Rossiyada ishonch telefoni, ijtimoiy – psixologik yordam kabinet, tang xolatlari uchun statsionarlar, uslubiy suitsidologik markaz kabi struktur

bulinmalardan iborat bulgan suitsidologik xizmat kup yil davomida muvofakiyatli faoliyat yuritib kelmokda.

Soglom kishilar orasida suikasdni profilaktikasi uchun umumiy somatik, xududiy poliklinikalar bazasida ijtimoiy – psixologik kabinetlar tashkil etish kerak deb xisoblaydi. Shunday kilib suikasdlarni nafakat prevensiyasi, balki, postvensiyasi xam zarurdir. Suikasdlarni oldini olish psixiatrik imkoniyatlar chegarasidan tashkariga va tibbiy, psixologik, ijtimoiy, xukukiy va pedagogik xarakterdagi choralarni amalga oshiruvchi tizimni tuzish yuli bilan xal kilinishi kerak.

Butun dunyoda suikasdlar soni va bunga urinishlar soni ortib bormokda. Suikasd muammolarining turli aspektlariga bagishlangan kuplab tekshiruvlar utkazilishiga karamay, Uzbekistonda suitsidal xatti – xarakat kelib chikishida ijtimoiy – demografik (jins, yosh, ma'lumot darajasi, oilaviy axvoli, bandligi) va shaxsiyatga oid xususiyatlarining roli urganilmay kolmokda.

Suikasd xavfi bor gurux va omillarni aniklash, suikasd xavfi bor xolatlarni taxlili respublikada ilmiy asoslangan preventiv va reabilitatsion tizimni ishlab chikish imkonini beradi.

Situatsion reaksiyalar va psixologik depressiyalari bor suitsidentlarni reabilitatsiyasi ma'lum kiyinchilik va xususiyatlarga ega. Toksikologik markazda odatda, psixiatr maslaxati, tashxis kuyish, suitsidentning mexnat kobiliyatini aniklash, uni psixiatrik muassasada davolash zaruriyati bor yoki yukligini aniklash uchun amalga oshiriladi. Asosiy e'tibor suitsidentning somatik davolanishga karatiladi. Psixiatr kurigidan sung ruxiy buzilish aniklanganlarga uyiga ketishga ruxsat beriladi. Chunki, ularda aktual suitsidal niyat bulmaydi. Birok ba'zan ular yana suikasd urinishiga sabab buluvchi xolatga tushadilar. Shuning uchun suitsidentlarni profilaktikasi erta boskichlarda reanimatsiya, toksikologik bulim sharoitida boshlanishi kerak.

Ish tajribasi shuni kursatadiki, ilk suikasd urinishini amalga oshirgan situatsion reaksiyasi va psixologik depressiyasi bor shaxslar reanimatsion choralari

utkazilgandan sung darxol suitsidal davrdagi ularning birlashishi, psixoterapevtik alokasi bemorlarni erta reabilitatsiya kilish uchun zarur sharoit yaratadi. Shuning uchun biz uz oldimizga ikkita vazifani kuydik: kiska muddatda tashxis kuyish, suitsidentning xarakter xususiyatlarini, kadriyatlarini aniklash, autoagressiv xatti – xarakatini sababini va baxosini urganish, birinchi suxbatdayok tang xolatni tezda bartaraf kilishga karatilgan reabilitatsion chora tadbirlarni utkazish.

Bemorning somatik xolati yaxshilanganda suitsidal xavf darajasini aniklash va uni uyiga ruxsat berish, yoki psixonevrologik dispanserda statsionar davoga utkazish masalasi xal kilinadi. Bunday bemorlarga tibbiy – psixologik yordam kursatishning asosiy belgisi uz ichiga psixoterapevtik korreksiya va medikamentoz davoni oluvchi komplekslik xisoblanadi. Situatsion reaksiyalarda eng axamiyatlisi bemorni qo‘llab quvvatlashga, nizoni dezaktualizatsisiga, bemorni shaxsiy – ruxiy resursini ishga solishga, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘rilashga va umuman ruxiy tanglikni tezda bartaraf etishga qaratilgan psixoterapevtik ta’sirdir. Individual va guruxli terapiya usullari katta axamiyatga ega.

Tashvishli – depressiv xolatlarda o‘rta dozada antidepressantlar (amitriptilin, pirazidrol, azafen) va trankvilizatorlar (elenium, rudotel, tazepam) ularning ta’sirini kuchaytirish uchun sedativlar qo‘llanilgan. Asteno – depressiv xolatlarda astenik simptomatikaga ta’sir etuvchilar, shuningdek, antidepressantlar (pirazidol, azafen) va uncha ko‘p bo‘lmagan dozada trankvilizatorlar (grandaksin, rudotel) qo‘llanilgan. Bemorlar tomonidan suiqasd maksadida, ishlatiladigan dori preparatlarni kullash mumkin emas. Shunday kilib, insonning kiska muddatli tang xolatlarini bartaraf kilishda psixoterapiya muxim urin egallaydi. Amaliyotga suitsidentlarni davolashni va reabilitatsiya kilishni asosiy prinsiplarini kiritilishi, ularni tula konli, ijtimoiy psixologik readaptatsiyasiga erishishga imkon beradi. Kayta suitsidal urinishga intilishni oldini olishga yordam beradi.

Suitsidlar sonini ortishini oldini olish uchun axoliga uz vaktida yordam kursatish, ularni kullab kuvvatlash, xech bo‘lmaganda konsultatsiya darajasida bu ishni amalga oshirish kerak. Reabilitatsiya usullarini yanada samaraliroq qo‘llash

uchun doimiy ravishda arboblarga, xorijiy adabiyotlarga va nafaqat aholini davolashga qaratilgan usullarga balki, odamlarda suiqasdga turtki bo'luvchi sabablarni aniqlashga va imkoni boricha ularni bartaraf etishga qaratilishi kerak.

Xar bir odam yuz berishi mumkin bo'lgan suitsidni aniqlashi va oldini olish uchun qandaydir darajada psixolog bo'lishi kerak. Agar quyida sanab o'tilgan xolatlar sizning do'stingizda bo'lsa, unda mutaxassis (psixolog, psixoterapevt, psixiatr) yordamiga murojaat qilishi kerak.

## **TA'LIM MUASSASALARIDA SUISIDNING PSIXOPROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI TASHKIL ETISH**

Haddan tashqari jadallashayotgan inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining xususiyatlari, ma'lumotlarning muhim oqimi va hayot sharoitidagi turli xil o'zgarishlarga zudlik bilan javob berish zarurati ma'lum darajada biologik stimullar va ijtimoiy standartlarga asoslangan xulq-atvor strategiyasini tuzishning odatiy uslublariga ziddir. Zamonaviy odam ongli ravishda moslashish va qiyin vaziyatlardan chiqishning yangi yo'llarini izlash zarurati bilan duch keladi, chunki uning tajribasida shunga o'xshash kurashish strategiyasi mavjud emas.

Shunday qilib, inson hayotining zamonaviy sharoitlarining o'ziga xosligi va paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish uchun avlodlarning biologik kodi va tajribasidan foydalanishning mumkin emasligi asosan odamlarning psixologik travmatizatsiyasining o'sishini aniqladi, bu insonning hissiy farovonligi va ruhiy salomatligiga ta'sir qiladi.

Inqiroz sharoitida bo'lish, shaxsning hissiy holatida ham, shaxsning atrofdagi odamlar va ular bilan munosabatlar, o'zi va dunyodagi o'rni haqidagi g'oyalari tarkibida ham turli xil o'zgarishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ko'pincha g'oyalarni bunday qayta ko'rib chiqish shaxs tarkibidagi o'zgarishlarga olib keladi. Ular ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Inqirozga uchragan odam bir xil bo'lib qolishi mumkin emas: ular tanish, stereotipli toifalar bo'yicha o'zlarining hozirgi psixotravmatik tajribalarini tushunolmaydilar yoki odatlanishning oddiy odatiy modellaridan foydalanadilar. Natijada, inqiroz holatida bo'lgan sub'ektning ongida hayotga qarshi vakillar paydo bo'lishi mumkin. Yoshning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hayotning inqirozli holatlarida yeng zaif odamlar bolalar va o'spirinlardir. Ushbu yosh guruhining o'z joniga qasd qilishning o'ziga xos zaifligi haqida gapirishimiz mumkin.

Ta'lim muassasalari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish bilan bir qatorda talabalar va o'quvchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashdir.

Bolalar va o'spirinlarning psixologik salomatligini saqlashda ta'lim muassasasining psixologik xizmatiga muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi-psixologning vazifalariga o'quvchilarni rivojlanishidagi inqirozli davrlarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, inqiroz holatidagi bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish kiradi.

Bolalar va o'spirinlarda o'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilish urinishlarini oldini olish ota-onalar, o'qituvchilar va maktab psixologlarining dolzarb va muhim vazifalaridan biridir. Bolalar va o'spirinlarda o'z joniga qasd qilishning oldini olish tizimini yaratish, aslida, inqiroz sharoitida bo'lgan bolalar va o'spirinlarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning amalga oshirilishini ta'minlaydigan yagona tashkiliy-pedagogik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan o'qituvchilarning va barcha ta'lim muassasalari xodimlarining, ijtimoiy o'qituvchilarning, ota-onalarning psixologik ongi darajasini oshirish hamda inqiroz sharoitida bo'lgan bolalar va o'spirinlarga psixologik yordam ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu qo'llanmada bolalik va o'spirinlik davridagi zo'ravonlik va o'z joniga qasd qilish muammosining nazariy jihatlarini tahlili va inqiroz sharoitida bo'lgan bolalar va o'spirinlarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash doirasida psixologning amaliy profilaktika va tuzatish va rivojlantirish faoliyati materiallari keltirilgan. Qo'llanmada keltirilgan materiallar har xil turdagi ta'lim muassasalarining amaliy psixologlari uchun inqiroz sharoitida bolalar va o'spirinlar bilan profilaktika va tuzatish ishlarini tashkil etish nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin.

Suitsidal hatti harakatlarda psixologik diagnostikani amalga oshiruvchi, har bir bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va unga xos shaxsiy korreksiya va

reabilitatsiya re jalarini tayyorlashdan iborat. Bu chora tadbirlar nafaqat suitsidial holatlardagi muammolarni yechishda, balki pedagogikaning davolovchi va sogʻlomlashtiruvchi taraflarini mukammal kuchaytirish uchun yordam beradi.

Ushbu qoʻllanma taʼlim muassasalari psixologlarining tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, psixologik targʻibot-tashviqot, psixoprofilaktik ishlarini, psixokorreksion ishlarini toʻgʻri tashkil etish (yaxshilash), ijtimoiy psixologik muhitning mazmun – mohiyatini samarali boshqarish va mavjud salbiy oqibatlarining oldini olishda masʼuliyatni oshirish, taʼlim jarayonidagi oʻquvchilarning psixikasida aks etuvchi salbiy psixologik ustanovkalarni bartaraf etishga psixologik amaliy yordam beradi. Ushbu qoʻllanma amaliyotchi psixologlar, ota-analar va pedagoglar uchun moʻljallangan.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng yoshlar tarbiyasiga juda katta eʼtibor berib, ularni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs boʻlib yetishiga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi va mushtarakligi alohida oʻrin tutadi. Bugungi kunda pedagog-psixologlarning axborotlar oqimi uzluksiz kommunikatsiya tarmoqlaridan uzatilayotgan bir davrda xavfsizlikni taʼminlash, xatarlar, salbiy oqibatlarining oldini olishni masʼuliyatli vazifamiz. Shu boisdan oʻquvchi yoshlarimiz faol mehnat qilishi uchun avvalo ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlash, yaʼni nerv–psixik kasalliklarini oldini olishning mazmun-mohiyatini tushunib bormogʻi darkor.

Yoshlarimiz erkin fikrlaydigan, har qanday salbiy taʼsirchan gʻoyalardan, ong, tafakkur qaramligidan ozod, oilada, atrof-muhitda boʻlayotgan voqeahodisalarni haqqoniy baholaydigan va ularga erkin munosabatlarini bildiradigan, oʻzining ilgʻor fikrlari, naʼmunasi bilan oila aʼzolari, sinfdoshlari, doʻstlariga taʼsir qila oladigan, intellektual kuchga ega, tirishqoq, bilimli, jasur va odobli boʻlmogʻi nazarda tutiladi.

Haqiqattan ham yoshlarga pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qoʻllab mukammal bilimlar berishga, uzluksiz taʼlim tizimining barcha

bosqichlarida shaxsni tarbiyalash xalqaro talablar darajasida yo'lga qo'yish muhim vazifa sifatida o'rin egallaydi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos muammoli va murakkab tomonlari mavjud.

O'zbekistonda o'smirlar orasidagi suitsidga ayni paytda ta'lim muassasalarida psixolog mutaxassislarning rolini oshirish orqali yechim izlanmoqda. Xususan,

maktablarda psixolog shtatlarini o'quvchilar soniga muvofiq 1 nafardan 3 shtat birligigacha oshirish;

ular uchun alohida dastur asosida malaka oshirishi kurslarini tashkil etish;

oliygohlarda «sotsial psixologiya» yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

yuqori sinflari o'quv dasturiga "Oila psixologiyasi" fanini kiritish;

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Tashxis markazida muammosi mavjud voyaga yetmaganlar va yoshlar uchun anonim ishonch telefoni va maslahatxona tashkil etish kabilar belgilangan.

Maktab o'quvchilari orasida o'z joniga qasd qilish holatlari qayd etilganda, an'anaviy qarashga muvofiq, Xalq ta'limi vazirligi hodisaga bosh aybdor sifatida ko'riladi: ular bolaga to'g'ri tarbiya bermagan, o'z vaqtida boxabar bo'lmagan.

Vaholanki, bu faqatgina ta'lim muassasasining roli bilan hal bo'ladigan masala emas.

«Suitsid oila, bolaning tibbiy holati, ijtimoiy holati va maktabga bog'liq holda yuzaga keladi. Afsuski, jamiyatimizda oila bolani faqatgina moddiy ta'minlash funksiyasi bilan cheklanyapti, tarbiya majburiyati maktablar chekiga tushmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, MDH davlatlarida suitsidni korreksiyalash vazifasi psixolog yelkasiga yuklab qo'yilgan. Aslida bu masala psixologiyaning ob'ekti emas. Bu psixiatriyaning muammosi», — sanaladi.



Mutaxassisning soʻzlariga koʻra, baʼzi xastaliklar odamda chuqur depressiyani keltirib chiqaradi. Masalaga yondashuvda fiziologik holatlarni ham inobatga olish kerak.

«Muammo bilan koʻproq ijtimoiy instansiyalar shugʻullanyapti, vaholanki bunga tibbiy munosabati ham lozim. Yoshlar oʻrtasida salbiy xarakterdagi xulq-atvorning sabablari haqida soʻz ketar ekan, quyidagi fikrlarni berib oʻtish maqsadga muvofiqdir:

– Ommaviy axborot vositalarida suitsid haqidagi axborotlarning berilishi oʻsmir ruhiyatiga aks taʼsir koʻrsatadi.

Saytda yoritilayotgan xabarlarda arqon, balandlikda turgan bola, qon, dori kabi suratlar ilova qilinadi. Bunday demonstratsiya ruhiyati inqiroz ostonasida turgan odamga noqobil qaror uchun ipmuls berishi mumkin. Bunday axborotni uzatishda soʻzlarni toʻgʻri qoʻllay olish ham juda muhim. «Suitsid» degan sovuq soʻzning oʻrniga «deviant xulq-atvor», «oʻziga zarar yetkazish» kabi neytral xarakterli soʻzlardan foydalanish kerak. Ommaviy axborot vositalarida bu nozik masalaning yoritilishi tartibini qatʼiy ishlab chiqish lozim».

Hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, va ayniqsa, siyosiy sohalarda kuzatilayotgan keskin oʻzgari- shlar va iqtisodiy sohadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatiga ham salbiy taʼsir etayotganligini ham aytib oʻtish joiz. Yoshlar oʻrtasida jamo- atchilikda oʻziga nisbatan keraksiz inson sifatida qarab oʻz joniga qasd qilishlar boʻyicha ayni vaqtda yetarlicha ilmiy asoslarga suyangan holda ilmiy tadqiqot ishlarni joylarda oʻrganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yoshlar oʻrtasida oʻz joniga qasd qilish muammolari har bir ota-ona va pedagog-psixologlar uchun kutilmagan fojiali hodisalar boʻlib qolmoqda.

Yoshlar oʻrtasidagi bunday psixologik krizis kichik maktab yoshida, oʻspirin va oʻsmirlik yosh davrlaridagi oʻtish davri bilan bogʻlab tushuntirishga ham harakat qiladi. Shunday boʻlsa ham oʻsmirlarda deviant xulq koʻrinishlarini paydo boʻlishiga olib keladi va ularni quyidagi psixik holatlar bilan izohlash mumkin:

“Men” obrazidagi qarama qarshi pozitsiyasi o‘smir shaxs tomonidan o‘ziga ishonch xissini yo‘qotilishida namoyon bo‘ladi; “O‘zini boshqarish” xissini hali shakllanib ulgurmaganligi nati jasida hayot mazmuni va maqsadini yo‘qotish hissi shakllanadi; Psixologik krizis holatida ichki shaxsiy nizolar uzoq davom etishi depressiyani shakllantiradi; O‘smir shaxsdagi tarbiyasi qiyin bo‘lib qolishi oilaviy nosog‘lom muhitning ta’siri uzoq davom etganligi bilan bog‘liq.

O‘smirda psixologik inqiroz shaxsiy dunyo qarashlarning o‘zgarishlariga olib keladi. “Men” tizimining buzilishida o‘quvchi shaxs o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘ziga baho berishi, chorasizlik, axloqiy muvozanatsizliklar kuzatiladi. Bu o‘zgarishlar o‘zi uchun hayot sharoiti tarzida endi yashash imkoniyati yo‘qligi, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, shakllanib borayotgan deviant xulq ko‘rinishlari o‘smirning o‘ziga xos kompensatorlik mexanizmlari sifatida yuzaga keladi. Bu holat o‘smir kechinmalarini xarakteriga bog‘liq bo‘lib, konstruktiv bo‘lmagan kechinmalar ta’sirida shakllangan o‘smirning “men” bir tomondan kompensator- ximoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o‘tasa, ikkinchi tomondan, o‘smirning ijtimoiy adaptatsiyasiga xalaqit beradi. Bu esa o‘quvchi shaxsi oldida turgan vazifalarni hal etishga to‘sqinlik qiladi, o‘smirda o‘zini, yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgarishi mumkin emasligi haqida turg‘un fikr paydo bo‘ladi. Bu o‘z navbatida “O‘zini yo‘qotish”, “O‘ziga nafrat hissida bo‘lish” shaxsiy ichki nizolarni hal etish yo‘llarini izlash boshlanadi, yangi “Men” ning shakllanishi uchun zamin yaratsa, ya’ni boshi berk yo‘lga kirib qolgandek his qilib o‘z joniga qasd qilishga yo‘l qo‘yadi.

## XULOSA

O'z joniga qasd qilish insonning o'zini o'zi buzadigan xatti-harakatlarining eng radikal va aniq namoyonidir. Insonlarning o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlari, ijtimoiy hayotning hodisa sifatida va individual harakat sifatida, faqat antropologik va hodisalar toifasiga kiradi.

Ushbu hodisa barcha tirik mavjudotlar uchun g'ayritabiiy tabiati bilan ikki asrga yaqin qator dolzarb ilmiy va amaliy muammolarda bo'lib kelgan. Har yili o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlari muammosi tobora tahlikali bo'lib kelmoqda.

Respublikamiz aholisining o'z joniga qasd qilish faolligi o'rta bo'lgan mamlakatlar qatoridadir. Bugungi kunda o'z joniga qasd qilish xatti-harakati doimiy e'tiborni talab qiladigan sog'liqni saqlashning jiddiy muammosidir.

O'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini o'rganish va kelajakdagi psixologlar tomonidan uning oldini olishning ahamiyati shubhasizdir, chunki, birinchi navbatda, bu ko'proq ataladi psixologik muammo, ikkinchidan, odamlarning ruhiy salomatligi va qayta urinishini saqlash, ushbu mutaxassislarning vakolatiga kiradi. "Suitsidologiya asoslari"ni o'rganish o'z joniga qasd qilish xatti-harakatining psixologik va ijtimoiy-psixologik mohiyatini tushunishga, texnologiyalarni o'zlashtirishga imkon beradi.

Afsuski, o'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishi mumkin bo'lgan odam bilan muomala qilishning umumiy qabul qilingan usullari mavjud emas. Biroq, maslahat xizmatlari o'z joniga qasd qiluvchining ehtiyojlariga javob berishi kerak. O'z joniga qasd qilish shaxsini aniqlash, baholash va davolash ko'plab muhim o'zgaruvchilarni hisobga olishni talab qiladi. O'z joniga qasd qilgan odam ma'lumotga muhtojlikdan maslahat va dori-darmonga bo'lgan ehtiyojdan turli xil ehtiyojlarga ega. Depressiya yoki boshqa xatti-harakatlarni davolash uchun tez-tez yordam beradigan qisqa maslahat va dori-darmonlarning kombinatsiyasi buyuriladi. Biror kishi o'z joniga qasd qilish haqida o'ylar bilan mashg'ul bo'lganda, darhol nazorat choralari ko'rishni boshlash kerak. Bunga baho berish (masalan, ambivalensiya, qat'iylik va o'ziga zarar yetkazish halokati darajasi),

qo'llab-quvvatlash izlash, tartib va turli xil oilalarni jalb qilish va ishtirok etish shakllari va maslahat berish kiradi.

O'z joniga qasd qiluvchining xatti-harakatlarini nazorat qilish, shuningdek, dori-darmonlarni yoki kasalxonaga yotqizishni o'z ichiga olishi mumkin. O'z joniga qasd qilish inqirozini boshqarish shunchaki mustaqil hodisa bo'lmasligi kerak.

Ko'pincha boshqa sog'liqni saqlash organlari tarkibiga kiritilishi juda muhim va ba'zi hollarda bu haqda hatto hokimiyatni xabardor qilish kerak. Ko'p sonli mijozlari bo'lgan maslahatchilar, ayniqsa, inqirozni samarali bartaraf etish qobiliyatini bilishlari kerak. Bundan tashqari, uchinchi shaxslarning aralashuvi bilan bog'liq axloq qoidalarini va mahalliy qonunlarni bilish kerak.

Bolalar va o'spirinlarda o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlari ko'pincha murakkab motivlar, jumladan, depressiya, hissiy, xulq-atvor va ijtimoiy muammolar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladi. O'spirin o'z joniga qasd qilishning boshqa omillari orasida romantik munosabatlarning buzilishi, o'quv dasturidagi qiyinchiliklarga dosh berolmaslik va boshqa hayotiy stresslar hamda muammolar rivojlanganligi bilan bog'liq muammolar, o'z-o'zini past baholash va o'zlarining jinsiy identifikatsiyasi bilan shug'ullanishga urinishlar mavjud.

O'z joniga qasd qilgan bolalar ko'pincha oilaviy nizolarni va oilaning buzilishini boshdan kechiradilar, ajralish kabi o'zgarishlar nochorlik hissi va vaziyatni nazorat qila olmaslik sabab bo'lishi mumkin.

O'smirlarda, oiladagi nosog'lom munosabatlar, beparvolik va suiiste'mollik, bolalik davrida mehr va g'amxo'rlikning yetishmasligi bilan bir qatorda oiladagi ruhiy kasalliklar kabi omillar o'z joniga qasd qilish xavfini oshirishi mumkin.

Yoshlarning o'z joniga qasd qilishlari orasida oilaviy ruhiy kasalliklarning yuqori darajasi, oilani qo'llab-quvvatlamaslik, o'z joniga qasd qilish fikri yoki o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlari, intizom yoki huquqni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar va uyda turli tig'li buyumlar borligi kiradi.

O‘z joniga qasd qilish g‘oyasi va o‘z joniga qasd qilish urinishlari ko‘pincha tengdoshlari yoki kattalar tomonidan zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar va o‘spirinlarda uchraydi. O‘smirlar uchun qo‘shimcha xavf omili taniqli shaxslarning yoki o‘spirin shaxsan tanigan odamlarning o‘z joniga qasd qilishidir.

Xususan, yoshlar orasida imitatsion o‘z joniga qasd qilish hodisasi ham mavjud (kompaniya uchun). Yaxshi e‘lon qilingan o‘z joniga qasd qilish harakati yoki o‘z joniga qasd qilish, o‘z joniga qasd qilgan shaxsning turmush tarzi yoki shaxsiy xususiyatlarini aks ettiruvchi tengdoshlar guruhida yoki shunga o‘xshash boshqa guruhda o‘ziga zarar yetkazishi mumkin.

Bola yoki o‘spirin o‘z joniga qasd qilishda, masalan, maktablarda profilaktika choralarini amalga oshirishni tasdiqlovchi latif dalillar mavjud. 16 yoshdan oshgan o‘spirinlar orasida alkogol va giyohvand moddalarni suiiste‘mol qilish qiyin hayot sharoitida o‘z joniga qasd qilish xavfini oshiradi.

Kayfiyat va xavotirning buzilishi, uydan qochish va umidsizlik hissi o‘z joniga qasd qilishga urinish xavfini oshiradi. O‘z joniga qasd qilishga urinishlar ko‘pincha tajribali xo‘rlik bilan, masalan, maktabda yoki ishda muvaffaqiyatsizlik yoki romantik sherik bilan shaxslararo mojaro bilan bog‘liq. Shaxsiyat buzilishi tashxisi bilan o‘z joniga qasd qilish bunday tashxis qo‘yilgandan ko‘ra 10 baravar ko‘p sodir yetiladi, o‘z joniga qasd qilgan o‘spirinlarning 8 va 80 foizga yaqini shikastlanishdan keyingi stress buzilishi yoki zo‘ravonlik va tajovuzkorlik alomatlari bilan tashxis qo‘yilishi mumkin.

O‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini har tomonlama baholash o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha samarali maslahat va harakatlar uchun asosdir. O‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini o‘zaro tekshirishning asosiy maqsadi profilaktika va maslahat uchun ma‘lumot berishdir.

Sud tibbiy ekspertiza tekshiruvlarini o‘rganish suitsidlarga urinishlar va yuzaga kelishida nasliy moillik, yaqin qarindoshlik, qizlarda, ayollarda emotsional noturg‘unlik xolatlarini, yil fasllari (baxor, yoz oylari), yashash sharoitidagi mikroxududni salbiy ta‘sirlari xam aloxida o‘rin tutganligi qayd etildi.

Tugallangan suitsidlarda murdalarda yumshoq va pergamentlangan strangulyatsion egat, buyin soxa a'zolarini shikastlanishi, ichki a'zolarida o'tkir venoz to'laqonlilik bilan namoyon bo'lib, ayrim xolatlarda somatik kasalliklarni patomorfologiyasini sezilarli darajada o'zgarishiga sabab bo'lganligi kuzatildi.

Suitsidlar sonini ortishini oldini olish uchun axoliga uz vaktida yordam kursatish, ularni kullab kuvvatlash, xech bulmaganda konsultatsiya darajasida bu ishni amalga oshirish kerak. Reabilitatsiya usullarini yanada samaralirok kullash uchun doimiy ravishda arboblarga, xorijiy adabiyotlarga va nafakat axolini davolashga karatilgan usullarga, balki, odamlarda suikasdga turtki buluvchi sabablarni aniklashga va imkoni boricha ularni bartaraf etishga karatilishi kerak.

Xar bir odam yuz berishi mumkin bulgan suitsidni aniklashi va oldini olish uchun kandaydir darajada psixolog bulishi kerak. Agar kuyida sanab utilgan xolatlar sizning dustingizda bulsa, unda mutaxassis (psixolog, psixoterapevt, psixiatr,) yordamiga murojaat kilishi kerak.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asadov D.A., Xodjayeva N.D., Suitsidal xulknı kompleks profilaktikasini tashkillashtirish. Uzbekiston tibbiyot jurnali – 2004. № 1 – 2. 147 – 150 betlar.
2. Asadov D.A., Xodjayeva N.D. Suitsidal xulknı profilaktikasida kompleks yondashuv va uz joniga kasd kilish muammosi. Uzbekiston tibbiyot jurnali – 2002. № 4. 113 – 116 betlar.
3. Asadov D.A., Xodjayeva N.D. Suitsidologiyaning ijtimoiy – tibbiy aspektlari. Uzbekiston tibbiyot jurnali – 2001. № 1. 105 – 106 betlar.
4. Giyosov G.A., Masumxonov K.A., Suitsid xolatlarida metereologik omillarning tutgan urni va meteoprofilaktika imkoniyatlari. Uzbekiston tibbiyot jurnali – 2002. № 4, 78 – 79 betlar.
5. Giyosov G.A., Masumxonov K.A., Suitsid va parasuitsid xolatlarini yuzaga kelishida axamiyatli bulgan ayrim xavf omillarining kiyosiy tavsifi. Uzbekiston tibbiyot jurnali – 2004. № 5, 58 – 60 betlar.
6. Giyosov G.A., Masumxonov K.A., Suitsid xolatlarining sud – tibbiy taxlili. Jurnal teoreticheskoy i klinicheskoy meditsini. 2001. № 1. str. 116 – 118.
7. Mordinov L.A., Basharin K.G. Analiz sluchayev samoubiystv (pri poveshenii) po dannim sudebno – meditsinskoy ekspertizi yakutska. Sud. Med. ekspertiza. 2004. № 1. str 39 – 41.
8. Reznik A.M., Fastavsov G.A. Osobennosti stress – provotsirovannogo suitsidalnogo povedeniya voyenna – slujashix. Voyenno – med. Jurnal. 2004. № 6. str. 36 – 41.
9. Sotnikova Yu.A. Spetsifika zashitnix mexanizmov u lis, sovershayushix suitsidalnie popitki. Sotsialnaya i klinicheskaya psixiatriya. 2004. № 11. str. 11 – 18.
10. Suitsidalnie otravleniya, epidemiologicheskiye i kliniko – toksikologicheskiye aspekti. Sotsialnaya i klinicheskaya psixiatriya. 2004. № 1. str. 28 – 23.

11. Tukayev R.D. Psixobiologicheskiy komponent suitsidalnogo povedeniya. Sotsialnaya i klinicheskaya psixiatriya. 2004. № 2. str. 103 – 109.
12. Xodjayeva N.D. Kliniko – psixologicheskiye faktori suitsidalnogo riska. Meditsinskiy jurnal Uzbekistana. 2003. № 1. str. 53 – 55.
13. Xodjayeva N.D. Problema suitsidalnogo povedeniya u detey. Pediatriya. 2001. № 3. str. 15 – 17.
14. Xodjayeva N.D. Analiz sotsialno – psixologicheskix pokazateley suitsidov v Respublike. Meditsinskiy jurnal Uzbekistana. 2001. № 4. str. 68 – 70.
15. Ambrumova A.G. Aktualnie problemi suitsidologii. Trudi Moskovskogo NII psixiatrii. Moskva – 1989.str. 6 – 25.
16. Stepanov V. Podrostkovie samoubiystva – rezultat bez religioznosti obshchestva. // Russkaya sivilizatsiya. Mosk. № 6. 2005. str.



**Malikova Asalxon Ergashevnaning "Suitsidlarga psixologik va psixiatrik jihatdan yondashuv. Suitsid sabablari va ularni bartaraf etish masalalari", nomli o'quv qo'llanmasiga ichki TAQRIZ**

Bugungi kunda dolzarb muammolar qatorida o'z joniga qasd qilish muammosi jahon mutaxassislari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Tan olish kerak-ki, ayrim ob'ektiv va sub'ektiv sabablar tufayli keng ommaga o'z joniga suiqaqd qilish holatlarining statistik ma'lumotlari yoritilmaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har 40 soniyada bir odam o'z joniga qasd qiladi. Har yili 100 ming kishidan o'rtacha 11 kishi o'z hayotiga chek qo'yadi.

Jahonda sodir etilgan o'z joniga qasd qilish hollarning 75 foizi kambag'al davlatlarda ro'y beradi.

O'z joniga qasd qilganlar orasida ayollarga qaraganda erkaklar ko'proq.

Jahonning ba'zi mintaqalarida o'z joniga qasd qilish 15-19 yoshda bo'lganlar orasidagi o'limga sabab bo'luvchi asosiy omilga aylangan. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bir yilda suisidlar soni bir millionga yaqinlashib qolayotganidan xavotirga tushmoqda. Agar vaziyat shu tariqa davom etadigan bo'lsa, 2020 yilga borib o'z joniga qasd qiluvchilar soni bir yarim barobar oshar ekan. Shu sababli ham o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish xalqaro assosiasiyasi Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda Jahon o'z joniga qasd qilishlarning oldini olish kunini o'tkazar ekan, dunyo hukumatlari va jamoatchilikka murojaat qilib, insonlarning hayotini saqlab qolish maqsadida mas'uliyatni his qilishga chaqirmoqda.

Aholi orasida suisidning ko'payib borayotganligi har birimizni xavotirga soladi. Ushbu dolzarb ijtimoiy-psixologik muammoni faqat suisidologlarga yuklab qo'yish bilan uning echimini topish ancha mushkul. Hammamiz birgalikda harakat qilishimiz kerak. Sosiologlar, umumiy psixologlar, tibbiy psixologlar va psixoterapevtlar bir yoqadan bosh chiqarib suisidga olib keluvchi sabablarni bartaraf etishlari lozim.

Bugungi kunda bir qator mamlakatlarda o'z joniga qasd qilishga uringan shaxslar jazoga tortiladi. Masalan, Hindistonda o'zini o'ldirishga uringan shaxs bir yil ozodlikdan mahrum qilinadi yoki jarimaga tortiladi. Singapurda ham o'zini o'ldirishga uringan shaxslar bir yil qamoqda o'tirishga majbur.

O'quv qo'llanmada muallif o'zi yoritayotgan mavzu yuzasidan keng tushuncha berib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlab o'tgan: yoshlarga pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo'llab mukammal bilimlar berishga, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida shaxsni tarbiyalash xalqaro talablar darajasida yo'lga qo'yish muhim vazifa sifatida o'rin egallaydi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos muammoli va murakkab tomonlari mavjud. Hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, va ayniqsa, siyosiy sohalarida kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar va iqtisodiy sohadagi beqarorlik insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarzi va ularning kasbiy faoliyatiga ham salbiy ta'sir etayotganligini ham aytib o'tish joiz. Yoshlar o'rtasida jamoatchilikda o'ziga nisbatan keraksiz inson sifatida qarab o'z joniga qasd qilishlar bo'yicha ayni vaqtda etarlicha ilmiy asoslarga suyangan holda ilmiy tadqiqot ishlarni joylarda o'rganishni taqozo etmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanmada suisidal holatning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil etilgan bo'lib, muallif tomonidan ushbu masalaga zamon nuqtai-nazaridan, yangi faktor hamda omillar asosida yondashish lozimligi keltirilgan va yosh pasayib borayotganligiga e'tibor qaratgan.

O'quv qo'llanmada suisidentlarda psixologik muammolarni diagnostikani amalga oshiruvchi, har bir suisidentning individual xususiyatlarini aniqlash va unga xos shaxsiy korrektsiya va reabilitasiya rejalarini haqida so'z boradi. Bu chora tadbirlar nafaqat suisidal holatlardagi muammolarni echishda, balki tibbiyotning davolovchi va sog'lomlashtiruvchi taraflarini mukammal kuchaytirish uchun yordam beradi.

Ushbu qo'llanma oliy ta'lim muassasalari psixiatr va psixologlarining tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, psixologik targ'ibot-tashviqot, psixoprofilaktik ishlarini, psixokorrektsion ishlarini to'g'ri tashkil etish (yaxshilash), ijtimoiy psixologik muhitning mazmun – mohiyatini samarali boshqarish va mavjud salbiy oqibatlarining oldini olishda mas'uliyatni oshirish, ta'lim jarayonidagi o'quvchilarning psixikasida aks etuvchi salbiy psixologik ustanovkalarni bartaraf etishga psixologik amaliy yordam beradi.

**Andijon davlat tibbiyot instituti  
psixiatriya va narkologiya kafedrası  
t.f.n., dosent:**

**A.A.Mirzaev**

**Malikova Asalxon Ergashevnaning "Suitsidlarga psixologik va psixiatrik jihatdan yondashuv. Suitsid sabablari va ularni bartaraf etish masalalari", nomli o'quv qo'llanmasiga tashqi**

**TAQRIZ**

O'z joniga qasd qilish – aksariyat holatlarda oldini olish qiyin bo'lgan ofat sifatida baholanadi. Insonni o'z hayoti bilan vidolashishga undagan sabablar hatto uning qarindoshlari va yaqinlari uchun ham jumboqligicha qolmoqda. Eng dahshatlisi esa, bu mash'um ishga hali butun hayoti oldinda bo'lgan yoshlar qo'l urayotganidadir. Suiqasd qilganlarning deyarli 98 foizi sog'lom ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan. Ular oddiy bir muammo oldida o'z joniga qasd qilgani tashvishli, albatta.

Bugungi kunda dolzarb muammolar qatorida o'z joniga qasd qilish muammosi jahon mutaxassislari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Tan olish kerak-ki, ayrim ob'ektiv va sub'ektiv sabablar tufayli keng ommaga o'z joniga suiqaqd qilish holatlarining statistik ma'lumotlari yoritilmaydi. Biroq bu muammo tobora ommalashib va hattoki "yosharib" borishi barcha mutaxassislarni o'ziga jalb etmoqda. Vaholanki, mazkur holat biror-bir mahallada qayd etilsa, yaqin 1-3 oy davomida aholi tomonidan tahlil etilib, turli xil "mish-mishlar"ga zamin yaratiladi.

O'spirinlarning o'z joniga qasd qilishi, bu qo'rqinchli fojia. Ularning bu dunyodan hammadan ko'ngli qolib, nafrat bilan ketishi yanada qo'rqinchlidir. O'zga dunyoga ular uylarining tomlaridan, chardok va og'lxonalar shiftlaridan bo'yinlaridagi sirtmoq bilan ketishmoqda. Ular qaytish umidi bilan umrbod ketishmoqda. O'zga, mehribon dunyoga qaytish umidi bilan, u erda ularga xech kim yomon baho qo'ymaydigan, yaqinlari orasida yolg'iz bo'lishmaydigan dunyoga umid bilan ketishmoqda. U dunyoda ular o'z qo'ruqlari, kamsitilishlari, o'zlariga bo'lgan cheksiz rahmsizlik hamda noilojlik bilan yolg'iz qolmasliklariga umid qiladilar.

Respublikamizda bolalar suisidi bo'yicha olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagoglar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar suisidial xulq-atvor shakllari haqida etarli ma'lumotga ega emas. O'z vaqtidagi psixologik yordam, o'smirlarni hayotning har qanday vaziyatlariga astoydil psixologik tayyorgarlik bunday nohush holatlarning oldini olgan bo'lar edi.

Ta'lim tizimidagi suisid muammosining oldini olishning echimi kadrlar masalasiga bog'liq, birinchi galda maktab psixologi, o'qituvchi va tarbiyachini tayyorlash lozim. Pedagogika, psixologiya, medisinaga doir qo'shimcha tayyorgarliklar suisidial hatti – harakatga ega o'quvchining muammosining oldini olish va korreksiya qilish mohirlik bilan echishga yordam beradi.

Psixologlar qalbdagi tushkun kayfiyat va tabiatning turfa ranglari o'rtasidagi qarama-qarshilik, keskin farq bunga sabab bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik olim Tomas Elliot eng shafqatsiz oy deb aprelni ko'rsatadi. Suisidning eng ko'p miqdori aynan aprel oyiga to'g'ri kelishi qayd etilgan.

Yoshlarlarning o'z joniga qasd qilishi, bu qo'rqinchli fojeadir. Ularning bu dunyodan hammaning ko'ngli qolib, nafrat bilan ketishi yanada qo'rqinchlidir. O'zga dunyoga ular uylarining tomlaridan, chardok va og'lxonalar shiftlaridan bo'yinlaridagi sirtmoq bilan ketishmoqda. Ular qaytish umidi bilan umrbod ketishmoqda. Ular "kimni yo'qotganliklarini bilib qo'yishsin" degan maqsadda kattalarni yoki sevgan insonlarining diqqatini o'zlariga qaratishga urinishadi.

Ammo yoshlar o'lim, bu hayotning tugashi ekanligini ohirigacha anglab etmaydilar. Ularning hayollarida g'olibona o'rinlarda turishsa-yu, yashashni davom ettirishsa. Lekin bu tahmin ular istagandek bo'lib chiqmaydi.

Umr – ilohiy rizq, tiriklik – ulug' ne'mat. Uning har bir daqiqasi shukrini keltirish, yaxshi va xayrli ishlar etagini tutib, sabr-qanoat va Iroda bilan yashash qiyinchiliklar echimiga yo'l ochadi, insonning oila va Vatan oldida yuzini yorug'qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada standartlashtirilgan, aniq tadqiqotlar va amaliy muammolarni hal qilish uchun mos bo'lgan usullar mavjud. Taqdim etilgan qo'llanmadada "suisidentlarning psixologik muammolari" metodologiyasining tarixi, metodologiyasi va standartlashtirish natijalari keltirilgan.

Qo'llanmada suisidentlarni hayotning turli sohalarida: ota-onalar, tengdoshlar bilan, maktabda, sog'liqqa, kelajakka, ijtimoiy hayotga, bo'sh vaqtga, o'ziga nisbatan munosabatlardagi o'zlarini tutishlari keltirilgan.

Ushbu qo'llanma psixiatriklar psixologlar, diagnostika va ADTI bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan. Bunda suisidentlarni psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanmadan suisidentning psixologik xavotirini aniqlash va qabul qilingan pedagogik qarorlarni asoslash uchun sharoitlar va qayta ishlash usullariga ko'ra "suisidentlarning psixologik muammolari" usuli ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan foydalanish mumkin.

**ToshPTI psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya va psixoterapiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori.**

**V.K.Abdullaeva**





40,1,38,3,36,5,34,7,32,9,30,11,28,13,26,15,24,17,22,19  
2,39,4,37,6,35,8,33,10,31,12,29,14,27,16,25,18,23,20,21

80,41,78,43,76,45,74,47,72,49,70,51,68,53,66,55,64,57,62,59  
42,79,44,77,46,75,48,73,50,71,52,69,54,67,56,65,58,63,60,61

116,81,114,83,112,85,110,87,108,89,106,91,104,93,102,95,100,97  
82,115,84,113,86,111,88,109,90,107,92,105,94,103,96,101,98,99